Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 342

YANGI O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MUAMMOLARI

ABDUHAKIM ABDULAZIZOVICH SO‘FIYEV*
Farg’ona davlat unversiteti, Huquqshunoslik fakulteti Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori
✉ sufiyevabduhakim474@gmail.com

ANNOTATSIYA

Konstitutsiya normalari hamda maxsus qonunchilik asosida Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishning dolzarb ijtimoiy-huquqiy va tashkiliy muammolari tahlil etilgan. Davlat boshqaruvida mansabdor shaxslarning diskretsion vakolatlarini jilovlash, idoralararo proaktiv hamkorlikni kuchaytirish hamda sohada inson omilini cheklovchi raqamli monitoring platformalarini joriy etish bo‘yicha tizimli tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar

Korrupsiyaga qarshi kurashish, muammolar, Lex.uz, Konstitutsiya, diskretsion vakolat, raqamlashtirish, inson qadri, huquqiy madaniyat, manfaatlar to‘qnashuvi, profilaktika.

DOI: 10.5281/zenodo.23279504

KIRISH

Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari hamda ushbu illatning ijtimoiy-huquqiy oqibatlarini bartaraf etish bugungi kunda davlat siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiya – demokratiya va huquq ustuvorligining bosh kushandasidir. Ushbu ommaviy anomaliya shunchaki idoraviy intizomsizlik emas, balki jamiyatni parokanda qiladigan, demokratik institutlar poydevoriga putur yetkazadigan, inson huquq va erkinliklarining tizimli buzilishiga olib keladigan, bozor munosabatlari va uning funksional faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan hamda jamoat xavfsizligiga tahdid soladigan o‘ta dahshatli va global illatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Korrupsiya butun insoniyatga, barcha jamiyatlar asosiga, iqtisodiy taraqqiyotga zarba beradigan, qonun ustuvorligini buzaidgan va xalqning davlat siyeasatiga ishonchini keskin susaytiradigan, demokratik institutlar rivojiga to‘sqinlik qiladigan xatarli tahdidlar va u barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi rejalarimizga ham putur yetkazadi”. Siyosiy-huquqiy sabab-oqibat qonuniyatiga ko‘ra, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida korrupsiyaning kriminogen omillarini barvaqt aniqlash va unga nisbatan murosasiz huquqiy muhitni shakllantirish — jamiyatda huquqiy nigilizm inqirozini sindirishni, inson huquqlari proteksiyasini hamda ommaviy boshqaruv apparatining universal barqarorligini to‘liq kafolatlovchi bosh drayverdir. Shu sababli, Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi umumdavlat miqyosida eng dolzarb huquqiy-strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Etimologik va falsafiy-huquqiy jihatdan tahlil etilganda, korrupsiya so‘zi lotincha *corrumpere* ya’ni buzmoq, aynitmoq, daxlsizlikni poymol etmoq mazmunidan olingan bo‘lib, odatda mansabdor shaxslar, hokimiyat vakillari yoki boshqaruv apparati xodimlari tomonidan o‘zlariga ishonib topshirilgan mansab vakolatlari va huquqlaridan shaxsiy, moddiy yoxud kastaviy manfaatlari yo‘lida, amaldagi qonunchilik va jamiyat axloq qoidalariga mutloq zid ravishda foydalanishini anglatadi. Huquq sotsiologiyasi va qiyosiy huquqshunoslik o‘zagi shuni isbotlaydiki, korrupsiya bugungi kunda dunyodagi barcha mamlakat qonunchiligi bilan huquqqa

qarshi eng og‘ir ijtimoiy xavfli harakat sifatida baholanadi. Global miqyosda olib borilayotgan siyosiy-iqtisodiy, sotsiologik va nazariy tadqiqotlar korrupsiyaning davlatlarning iqtisodiy o‘sishi, investitsiyaviy jozibadorligi, barqaror ijtimoiy-madaniy rivojlanishi hamda xalqaro munosabatlardagi legitim obro‘siga o‘ta yirik vayronkor to‘siq ekanligini yaqqol ko‘rsatmoqda. Insoniyat tarixiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, korrupsiyaning eng ibtidoiy ko‘rinishlari qabilada muayyan ijtimoiy mavqega, nufuzga yoxud daxlsizlik huquqiga ega bo‘lish ilinjida qabila boshliqlari va oqsoqollariga moddiy hadyalar, sovg‘alar berish an’analaridan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. Garchi o‘sha qadimgi o‘tish davrlarida bu odat subyektlar huquqiy ongida normal ijtimoiy holat sifatida qabul qilingan bo‘lsa-da, keyinchalik davlat apparatining murakkablashishi, markazlashishi va byurokratik ierarxiyaning shakllanishi korrupsiyaning davlat barqarorligidagi eng yirik huquqiy inqiroz ekanligini o‘rtaga tashladi. Tarixiy-huquqiy hujjatlar va ta’limotlar tarixiga ko‘ra, korrupsiyaga qarshi qat’iy ma’muriy va huquqiy choralar ko‘rgan hamda ushbu illatga qarshi kurashgan birinchi tizimli tuzilma sifatida qadimgi Shumer sivilizatsiyasi e’tirof etiladi.

Shu bilan birga, insoniy qadriyatlar va huquqiy madaniyat poydevori bo‘lgan dunyo dinlarining muqaddas manbalarida ham poraxorlik va korrupsiya illatlari transsendental darajada qattiq qoralangan. Jumladan, Injilda: “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deb buyurilgan bo‘lsa, muqaddas Qur’oni Karimda: “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” degan oliy huquqiy-axloqiy normalar mustahkamlangan. Ushbu fundamental diniy va falsafiy asoslardan ham ko‘rish mumkinki, korrupsiya nafaqat bugungi zamonaviy davrda ommaviy qoralanadi, balki barcha sivilizatsiyalarning muqaddas kitoblarida ham uning jamiyat xavfsizligiga qanchalik dahshatli putur yetkazishi vizual ko‘rsatib berilgan. Keyinchalik, dunyoda demokratik institutlar va siyosiy partyalarning vujudga kelishi hamda ularning mamlakat ҳaётidagi jamoatchilik nazorati va parlament filtri sifatidagi o‘rnining oshib borishi o‘n to‘qqizinchi va yigirmanchi asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa o‘tish davridagi mamlakat hisoblangan hududlariga nisbatan anchagina kamayishiga, boshqaruv apparatining funksional shaffoflashishiga mantiqiy sabab bo‘ldi.

Bugungi shiddatli taraqqiyot davrida korrupsiyaga qarshi izchil kurashish, uning kriminogen omillarini barvaqt aniqlash va oldini olish huquqiy davlatning eng muhim funksiyalaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu dahshatli illatga qarshi kurashish, davlat boshqaruvining daxlsizligini ta’minlash borasidagi Yangi O‘zbekistonda Davlat rahbari boshchiligida hukumatimiz tomonidan o‘ndan ortiq strategik qonunlar, kodekslar va qonunosti hujjatlari qabul qilingani bejiz emas. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda: “Korrupsiyaga qarshi kurashish har bir sof vijdonli insonning, demokratik davlatning muqaddas burchidir”. Ushbu oliy g‘oya doirasida bugungi kunda mamlakatimizda fundamental islohotlar zanjiri amalga oshirilib kelinmoqda. Davlat boshqaruvida byurokratiyani keskin kamaytirish, davlat organlaridagi oziqcha, bir-birini takrorlovchi idoraviy vazifa va funksiyalarni optimallashtirish, an’anaviy inson omiliga asoslangan ”qo‘l” boshqaruvidan to‘liq avtomatlashtirilgan, algoritmik ”aqlli” boshqaruv tizimiga hamda to‘liq raqamlashtirilgan hukumat ekotizimiga o‘tish — korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining eng ustuvor va strategik yo‘nalishlari etib belgilandi.

Shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida aksilkorrupsion samaradorlikni oshirish, ommaviy munosabatlarda shaffoflik va ochiqlik sohasini tubdan takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashishda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari va matbuot ishtirokini proaktiv kengaytirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, davlat va jamiyatning barcha soha hamda tarmoqlarida korrupsion xavf-xatarlar darajasini algoritmik pasaytirish, xalqaro hamkorlik ko‘lamini kengaytirish hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz huquqiy ong va yuksak huquqiy madaniyat muhitini shakllantirish, aholi va davlat xizmatchilarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tizimli bilimlarini proaktiv oshirish strategik maqsad qilib belgilangan. Hozirgi kunda to‘la ishonch va falsafiy-yuridik asoslar bilan aytish mumkinki, korrupsiyaga qarshi kurashish O‘zbekistonda davlat siyosatining eng ustuvor, monolit yo‘nalishiga va ommaviy-huquqiy munosabatbining bosh daxlsizlik mezoniga aylanib ulgurdi. Buni so‘nggi yillarda sohaga oid qabul qilingan o‘ta egoistik siyosiy-huquqiy hujjatlar, ma’muriy islohotlar va inson omilining salbiy ta’sirini butunlay yo‘qotishga qaratilgan universal raqamlashtirish jarayonlari misolida to‘liq ko‘rish mumkin.

Aksilkorrupsion preventiv choralar samaradorligi qonun normalarining tizimliligi hamda ularni realizatsiya qiluvchi institutlarning mustaqillik darajasiga bog‘liq. Qonunning 3-moddasi korrupsiya, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik hamda manfaatlar to‘qnashuvi kabi tushunchalarning chegaralarini yuridik jihatdan aniqlashtirib beradi. Shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi taqiqlanishi, shuningdek, shaxsiy manfaatdorlik bilan jamiyat yoki davlat huquqlari o‘rtasidagi qarama-qarshilikning huquqiy mezon sifatida muhrlanishi, ommaviy boshqaruv apparatida javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta’minlashni hamda mansabdor shaxslarning diskretsion vakolatlarini jilovlashni kafolatlovchi bosh omildir. Qonunning 4 va 5-moddalarida belgilangan ochiqlik, shaffoflik hamda korrupsiyaning oldini olishga doir choratadbirlar ustuvorligi tamoyillari aksilkorrupsion davlat siyosatining o‘zagini tashkil etadi.

Ushbu qonuniy prinsiplarning real preventivasi qonuniy normalar muayyan tashkiliy-huquqiy asimmetriyaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi organlar sifatida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar va Adliya vazirliklari hamda idoraviy komplayens-nazorat tuzilmalarining yaxlit zanjiri belgilangan. Tarqoq subyektlar faoliyatini huquqiy-uslubiy jihatdan muvofiqlashtirish va ularning qarorlari ijrosini davlat organlari uchun majburiyligini ta’minlash maqsadida Milliy kengash institutlashtirilgan. Shunga qaramay, idoralararo axborot almashinuvi tizimida inson omilining hamon yuqoriligi hamda proaktiv algoritmik filtrlarning yetishmasligi korrupsiyaning oldini olishga doir choralar samaradorligini pasaytirmoqda.

Qonunning 8¹-moddasiga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ushbu sohadagi maxsus vakolatli organ hisoblansa-da, uning ma’muriy va protsessual vakolatlari doirasida aniqlangan korrupsion xavf-xatarlar yoki manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini avtomatlashtirilgan tarzda bevosita cheklash mexanizmlari qonunchilikda mukammal emas. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan yo‘llangan takliflar, jamoatchilik eshituvlari monitoringi natijalari hamda korrupsiyaning tizimli sabablarini o‘rganish jarayonlari ko‘p hollarda keyingi bosqichdagi an’anaviy tekshiruv-sanksiya usullariga tobe bo‘lib qolmoqda. Bu holat esa korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni barvaqt jilovlash sferasida axborot asimmetriyasini keltirib chiqaradi. Aksilkorrupsion qonunchilik samaradorligini oshirish uchun faqatgina vakolatli organlar ro‘yxatini kengaytirish yetarli emas. Milliy kengash va Agentlik faoliyatining huquqiy-uslubiy quvvatini raqamli veto tizimlariga integratsiya qilish, manfaatlar to‘qnashuvining ehtimoliy va mavjud vaziyatlarini avtomatlashtirilgan elektron platformalar orqali monitoring qilish hamda har bir ma’muriy-huquqiy tartib-taomil bosqichida amaldor ixtiyorini cheklovchi algoritmik modellarni joriy etish zarur.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarining tarixiy-huquqiy va ijtimoiy transformatsiyasini davlat boshqaruvi tizimi prizmasidan tahlil etish, oldingi O‘zbekiston (2016-yilgacha bo‘lgan davr) hamda Yangi O‘zbekiston (2016-yildan keyingi davr) boshqaruv modellarining konseptual farqlarini o‘rganishni taqozo etadi. Qonunning 4 va 5-moddalarida belgilangan ochiqlik, shaffoflik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplari ushbu ikki davr o‘rtasidagi tub huquqiy burilish nuqtalarini aks ettiradi.

Oldingi O‘zbekiston boshqaruv tizimida korrupsiyaga qarshi kurash asosan reaktiv-jazolash (post-faktum) xarakteriga ega bo‘lib, kriminogen omillarni barvaqt jilovlash emas, balki sodir etilgan jinoyat oqibatlari bilan kurashish ustuvor edi. Ma’muriy-huquqiy ekotizim to‘liq yopiqlik, axborot monopoliyasi hamda o‘rta bo‘g‘in amaldorlarining cheksiz diskretsion (ixtiyoriy) vakolatlariga tayangan edi. Litsenziya, ruxsatnomalar berish, davlat xaridlari hamda budjet resurslarini taqsimlashda “inson omili”ning mutloq qudrati tizimli korrupsiya va idoraviy sansalorlik g‘uborini vujudga keltirgan edi. Aholida o‘z huquqiy himoya vositalaridan bexabarlik — huquqiy debyutantlik inqirozi yuqori bo‘lib, jamoatchilik nazorati mexanizmlari amalda deklarativ shaklda ham mavjud emas edi.

Yangi O‘zbekiston davrida esa ushbu paradigma tubdan o‘zgarib, aksilkorrupsion siyosat proaktiv-preventiv (barvaqt oldini olish) modeliga transformatsiya qilindi. Qonunning 7 va 8¹-moddalari doirasida mutloq mustaqil institut — Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi hamda davlat organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat komplayens-tuzilmalari tashkil etildi. Bugungi kunda (2026-yil holatiga ko‘ra) “inson omili”ni qisqartirishga qaratilgan universal raqamlashtirish, “qo‘l” boshqaruvidan avtomatlashtirilgan elektron tizimlarga o‘tish davlat siyosatining o‘zagini tashkil etmoqda. Davlat xizmatlarining yagona platformaga o‘tkazilishi

amaldor ixtiyorini cheklovchi raqamli filtr vazifasini bajarmoqda.

Quyidagi qiyosiy-huquqiy jadvalda oldingi O‘zbekiston va Yangi O‘zbekistondagi aksilkorrupsion kurash modellarining konseptual farqlari yaqqol aks etadi:

Qiyosiy mezonlar	Oldingi O‘zbekiston (2016-yilgacha)	Yangi O‘zbekiston (2016-yildan keyin)
Siyosatning strategik tabiati	Reaktiv-jazolash (jinoyat sodir etilgandan keyingi chora)	Proaktiv-preventiv (kriminogen xavfni barvaqt jilovlash)
Institutsional mexanizm	Maxsus ixtisoslashgan mustaqil preventiv organ mavjud emas edi	Maxsus vakolatli Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi
Boshqaruv uslubi va inson omili	Subyektiv “qo‘l boshqaruvi”, keng diskretsion vakolatlar	Avtomatlashtirilgan raqamli tizimlar, ”Smart Governance”
Idoraviy nazorat tizimi	Komplayens-nazorat va ichki filtrlar tizimi mavjud emas edi	Barcha davlat idoralarida komplayens-nazorat tuzilmalari joriy etildi
Jamoatchilik nazorati va ochiqlik	Yopiq idoraviy ierarxiya, axborot asimmetriyasi yuqori	Ochiq ma’lumotlar reyestri, mahalla eshituvlari faollashuvi

Demak, ushbu tarixiy transformatsiya tahlili shuni isbotlaydiki, Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish muammolarini hal etish faqatgina ma’muriy bosimni oshirish emas, balki qonun ustuvorligini raqamli veto tizimlari orqali monolit holatga keltirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Aksilkorrupsion kurash mexanizmlarida vakolatli muassasalar faoliyatini tabaqalashtirish hamda fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlik ko‘lamini kengaytirish tizimli boshqaruv samaradorligini belgilaydi. Qonunning 11, 12 va 13-moddalari doirasida Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining funksional chegaralari qat’iy belgilab qo‘yilgan. Ichki ishlar organlari hamda Departament tizimida tezkor-qidiruv faoliyati, surishtiruv va dastlabki tergov vakolatlarining mavjudligi korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga nisbatan bevosita huquqiy ta’sir choralarini qo‘llash imkonini beradi. Adliya vazirligining qonun ijodkorligi, huquqiy targ‘ibotni muvofiqlashtirish hamda normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish borasidagi majburiyatlari esa ma’muriy apparatda huquqiy asimmetriya va bo‘shliqlarni barvaqt bartaraf etishga qaratilgan strategik filtr vazifasini bajaradi.

Biroq ko‘p tarmoqli subyektlar tizimida korrupsion xavf-xatarlar to‘g‘risidagi statistik ma’lumotlarni yig‘ish, monitoring o‘tkazish va tahlil qilish jarayonlarida idoralararo funksional uzilishlar ko‘zga tashlanadi. Agentlik, Departament va Ichki ishlar organlarining axborot resurslari o‘rtasida real vaqt rejimida to‘liq integratsiyaning shakllanmaganligi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish yo‘llarini hamda yashirin pul operatsiyalarini tezkor aniqlash tezligini pasaytiradi. Shu bilan birga, qonunning 14 va 15-moddalarida mustahkamlangan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazorati subyekti sifatidagi ishtiroki ko‘p hollarda deklarativ formatga tobe bo‘lib qolmoqda. Jamoatchilik tavsiyalari va monitoring materiallarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun majburiy yuridik kuchga ega emasligi jamiyatda muayyan huquqiy loqaydlik refleksini keltirib chiqaradi.

Ushbu muammolarning tub asosi qonunning 16 va 17-moddalarida nazarda tutilgan aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy ongi hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish mexanizmlarining funksional zaifligi bilan bog‘liqdir. Davlat organlari va tashkilotlarida xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish tadbirlari, o‘quv-uslubiy ishlarning an’anaviy ma’ruza va rasmiyatchilik formatida tashkil etilishi mas’ul shaxslarda korrupsiyaga va manfaatlar to‘qnashuviga nisbatan kognitiv immunitetning yetarli darajada shakllanishiga to‘sqinlik qilmoqda. Shuning uchun tarqoq idoraviy targetlarni yagona raqamli monitoring tizimlari bilan birlashtirish, jamoatchilik nazorati va ommaviy axborot vositalari signallarini Departament hamda profilaktika organlarining tezkor-qidiruv filtrlari bilan tizimli muvofiqlashtirish bugungi huquqiy islohotlarning bosh poydevoridir.

Idoralararo proaktiv hamkorlikni kuchaytirish uchun jinoiy daromadlar va korrupsion xavflarni monitoring qiluvchi yagona elektron tahlil markazini shakllantirish.

Amaliyotda Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining korrupsiyaga oid statistik ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish tizimlari tarqoq xarakterga ega. Bu holat pul mablag‘lari va mol-mulk bilan bog‘liq shubhali operatsiyalarni o‘z vaqtida fiksatsiya qilish hamda tergovga qadar tekshiruv jarayonlarining tezkorligini ta’minlashda qiyinchiliklar tug‘diradi.

Tavsiya qilamizki Adliya vazirligining normativ-huquqiy hujjatlar ekspertizasi bazasini, Departamentning pul

muomalasi monitoringi ma’lumotlarini va Ichki ishlar organlarining statistik hisobini avtomatlashtirilgan tarzda birlashtiruvchi markazlashgan axborot platformasini joriy etish lozim. Tizim davlat xaridlari yoki budjet taqsimotidagi normadan og‘ishish holatlarini aniqlagan vaqtda, mas’ul idoralarning tezkor bo‘linmalariga bir vaqtning o‘zida elektron xabarnoma yo‘llashi va protsessual harakatlar zanjirini faollashtirishi qonunchilikda mustahkamlanishi zarur.

Jamoatchilik nazorati signallari va ommaviy axborot vositalari materiallarini tekshirishning majburiy protsessual tartibini belgilash.

Qonunning 14 va 15-moddalarida nodavlat tashkilotlar, mahalla organlari va matbuotning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi belgilangan bo‘lsa-da, ular tomonidan aniqlangan kamchiliklar yoki jamoatchilik nazorati natijalari huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan tekshiruv o‘tkazish uchun majburiy yuridik asos sifatida e’tirof etilmaydi.

Qonunchilikka jamoatchilik nazorati subyektlari va ommaviy axborot vositalarida rasman e’lon qilingan yoki Agentlikning maxsus portallariga kelib tushgan korrupsion faktlarga doir murojaatlarni Ichki ishlar organlari hamda Departament tomonidan majburiy ravishda tergovga qadar tekshiruv obyekti sifatida qabul qilish majburiyatini yuklovchi norma kiritilishi kerak. Jamoatchilik eshituvlari yakunida tayyorlangan hujjatlar ijrosining holati yuzasidan davlat organlarining Milliy kengash oldida har chorakda hisobot berish tartibini mustahkamlash lozim.

Davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligini baholashning interaktiv va meritokratik reyting tizimini joriy etish.

Qonunning 17-moddasida xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish vazifasi belgilangan bo‘lsada, amaldagi tushuntirish va o‘quv ishlari umumiy xarakterda bo‘lib, xizmatchilarning real bilim darajasini hamda manfaatlar to‘qnashuvini farqlash ko‘nikmalarini xolis aks ettirmaydi.

Davlat xizmatchilari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qoidalari bo‘yicha har chorakda topshirilishi majburiy bo‘lgan avtomatlashtirilgan keys-test tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Ushbu reyting ko‘rsatkichlari xodimning lavozim bo‘yicha o‘sishi (meritokratiya) va rag‘batlantirilishi jarayonida asosiy mezonlardan biri sifatida inobatga olinishi, past ko‘rsatkich qayd etgan xodimlarni esa majburiy malaka oshirish kurslariga yo‘naltirish tartibi joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Ilgari surilgan tizimli va amaliyotga yo‘naltirilgan tashabbuslarning qonunchilikka integratsiya qilinishi quyidagi natijalarni kafolatlaydi:

Tezkorlik va hamkorlikning oshishi: Markazlashgan axborot platformasi Departament, Ichki ishlar organlari va Adliya vazirligi o‘rtasidagi axborot almashinuvi vaqtini qisqartiradi hamda huquqbuzarliklarni latent bosqichda aniqlash koeffitsiyentini yuksaltiradi.

Fuqarolik faolligining rag‘batlantirilishi: Jamoatchilik va matbuot signallarining majburiy protsessual filtrga aylanishi aholida huquqiy loqaydlik kayfiyatini yo‘qotib, jamiyat va davlat tuzilmalari o‘rtasidagi legitim ishonchni mustahkamlaydi.

Kadrlar immunitetining mustahkamlanishi: Reyting va baholash tizimining joriy etilishi davlat xizmatchilarining huquqiy ongini transformatsiya qilib, boshqaruv apparatida korrupsion omillarga nisbatan shaxsiy va kasbiy profilaktika muhitini shakllantiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Yangi O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish muammolari va vakolatli davlat organlarining faoliyat samaradorligi — ijro apparatining sanksion quvvati bilan jamoatchilik nazorati institutlarining o‘zaro mutanosibligiga tayanadigan tizimli jarayondir. Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi hamda Departamentning universal boshqaruv va huquqni muhofaza qilish salohiyati, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan maqsadli preventiv choralar bilan doimiy mantiqiy muvozanatda bo‘lishi shart.

Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi Qonun normalari doirasida nodavlat notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalarining boshqaruv shaffofligini ta’minlashdagi ishtiroki huquqiy davlat poydevorini mustahkamlaydi. Idoralararo hamkorlik mexanizmlarini takomillashtirish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilishda raqamli resurslar imkoniyatlaridan keng foydalanish hamda davlat xizmatchilarining huquqiy savodxonligini baholash mezonlarini qat’iylashtirish bugungi sud-ma’muriy islohotlarining bosh yo‘nalishidir.

Yakuniy xulosa sifatida aytish joizki, taklif etilayotgan idoralararo tahlil markazi, jamoatchilik nazorati signallarini fiksatsiya qilish tartiblari hamda interaktiv reyting tizimlarining qonunchilikka implementatsiya qilinishi boshqaruv apparatida mas’uliyatsizlik refleksini yo‘qotadi. An’anaviy nazorat modelidan proaktiv, shaffof va inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida proteksiya qiluvchi muvozanatlashgan ijtimoiy-huquqiy boshqaruv ekotizimiga o‘tish — Yangi O‘zbekistonda barqaror demokratik taraqqiyotni hamda qonun ustuvorligini ta’minlashning eng oliy kafolatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi yangi tahriri.2023

2. O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-janvardagi Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi O‘RQ-419-sonli Qonuni yangi tahriri.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi Jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi O‘RQ-474-sonli Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. Lex.uz